

складах литературу. Так, начальник Каракалпакской конторы «Узглавкниготорга» И.Крачак сообщал, что «у нас на складах и в магазинах скопилось большое количество остатков изданий Каракалпакского издательства художественной литературы, как изданной недоброкачественно, без иллюстраций или с плохими иллюстрациями» [10:24].

В системе книжной торговли существовали определенные проблемы и достижения. Широкий охват населения книжной продукцией с одной стороны, вызывали проблемы с их продажей, особенно массово-политической и сельскохозяйственной литературы с другой. Неравномерное распределение (по разнарядке) учебной литературы вызывали диспропорцию в обеспечении книг, особенно на каракалпакском языке. В районных и сельских магазинах на прилавках

находились книги (например, русско-каракалпакский словарь, каракалпакско-английский словарь и т.п.), которые были в дефиците в городских условиях.

В изучаемый период полиграфическая отрасль Каракалпакстана пережила сложный период организации своей деятельности. Несмотря на относительное улучшение качества и количества издаваемой книжной продукции, материально-технической базы и обеспечения кадрами, книжное дело по-прежнему оставалась дотационной и затратной.

В целом, этот период можно охарактеризовать как время активного формирования централизованной системы книгоиздания, где власти жестко регулировали деятельность полиграфической отрасли, регламентируя каждый этап редакционно-издательской деятельности.

Литература

1. Досумбетов К., Юсупов О. Каракалпакстан баспа сөзи. Пайда болууы хэм рауажлануу тарихынан. – Н.: 1991. – С.39.40

2. ЦГА РК, ф.323, оп.1, д.7, л.69.

3. ЦГА РК, ф.323, оп.1, д.1, л.26.

4. ЦГА РК, ф.322, оп.3, д.1735, л.75.

5. ЦГА РК, ф.322, оп.1, д.1707, л.96.

6. ЦГА РК, ф.322, оп.3а, д.1735, л.74.

7. ЦГА РК, ф.322, оп. 3, д.1735, л.147.

8. ЦГА РК, ф.322, оп.1, д.1707, л.108.

9. ЦГА РК, ф.Р-173, оп.1, д.201, л.230.

10. ЦГА РК, ф.Р-173, оп1, д.177, л.24.

РЕЗЮМЕ. Мақолада 1950-1970 йиллардаги китоб махсулотлари савдосидаги қатор муаммолар очиб берилган, китобхонлар эҳтиёжларини қондириш, китобхонликка қизиқишни оширишга қаратилган ҳаракатлар кўрсатилган. Умуман олганда, бу даврни марказлашган китоб наشري тизимининг фаол шаклланган даври сифатида тавсифлаш мумкин, бунда ҳокимият матбаа саноати, таҳририят ва наشريёт фаолиятини ҳар бир босқичини қатъий тартибга солган.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается ряд проблем реализации книжной продукции в 1950-1970-е годы, указываются меры, направленные удовлетворения потребностей читателей и повышения интереса к чтению. В целом, этот период можно охарактеризовать как время активного формирования централизованной системы книгоиздания, где власти жестко регулировали деятельность полиграфической отрасли, регламентируя каждый этап редакционно-издательской деятельности.

SUMMARY. The article reveals a number of problems in the sale of book products in the 1950-1970s, indicates measures aimed at meeting the needs of readers and increasing interest in reading. In general, this period can be characterized as a time of active formation of a centralized book publishing system, where the authorities strictly regulated the activities of the printing industry, regulating each stage of the editorial and publishing activity.

BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI VA UNI BUZGANLIK UCHUN

MA'MURIY JAVOBGARLIK

T.K.Kudaybergenova – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: bola, bola huquqlari, milliy qonunchilik, ma'muriy javobgarlik, Oila kodeksi, Konstitutsiya, ota-ona majburiyati, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun.

Ключевые слова: ребёнок, права ребёнка, национальное законодательство, административная ответственность, Семейный кодекс, Конституция, Закон «Об образовании», Закон «О гарантиях прав детей», Закон «О государственной политике в отношении молодёжи».

Key words: child, child rights, national law, administrative accountability, Family Code, Constitution, parental obligations, "Education Law," "Child Rights Guarantees Law," "Youth State Policy Law."

Mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlarni qabul qilishga e'tibor qaratildi. Shuning uchun ham Asosiy qonunimizda alohida bo'lim inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlandi. Jamiyat farovonligi yo'lida qabul qilingan

normativ-huquqiy hujjatlarda inson huquqlari va majburiyatlari aks ettirila boshlandi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash borasida samarali islohotlar tizimi yaratildi.

Ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan bolalar va yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, unga

kafolatlar yaratish borasida keyingi yillarda etarli darajada qonuniy asoslar yaratilmoqda. Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda mamlakatimizda uning to'laqonli qonunchilik asoslari yaratilgan deyishimiz mumkin.

“Bola (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)”; [3].

Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to'lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashlarsiz ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.

Bola huquqlari deganda - irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquq normalarida 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Mamlakatimizda bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularni himoya qilish uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, yurtimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik asoslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, “Ta'lim to'g'risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi, “Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi, “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi va boshqa shu kabi qonunlar qabul qilindi.

Ular orasida “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun alohida ahamiyatga ega. Unda bola huquqlarining kafolatlari ta'minlanishi bilan bog'liq munosabatlar ishtirokchilari, ularning huquq hamda majburiyatlari aniq aks etgan. Shuningdek, qonunda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati, bola huquqlarining kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari kabi bolalarning huquqiy himoyasi mustahkamlab qo'yilgan.

Shu bilan birga, keyingi yillarda yurtimizda bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilib, bolalar mehnatiga butunlay chek qo'yildi. Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirildi. Bolalar huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish, uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, yosh avlodning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Bolalar har doim mehrga, g'amxo'rlikka muhtoj bo'ladi. Ularning huquq va erkinliklari to'liq kafolatlanishi shaxs shakllanishi, davlat va jamiyat istiqboli mustahkam bo'lishida nihoyatda muhim. So'nggi yillarda O'zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, “hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi” degan tamoyilga amal qilmoqda.

Prezidentimizning “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga binoan Oliy Majlisning Inson

huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari — Bola huquqlari bo'yicha vakil instituti joriy etildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bola huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash vazifasi ham o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qonunchiligimizda bola huquqlari bilan bog'liq bo'lgan qonun hujjatlari soni 40 dan, qonunosti hujjatlari soni 500 dan ortiqni tashkil etadi. Bu esa bola huquqlari sohasidagi qonunchilik bilan ixtisoslashgan holda ish olib borish hamda uning ijrosi bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mazkur qonun hujjatlarida

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolaning hayoti va sog'lig'ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish;
- uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- yosh avlodning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shartligi belgilangan bo'lib, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi [3].

Yoshlarimiz har doim o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun ta'lim va tarbiya olishini kelajakda ham mustahkamlab qo'yish maqsadida qonunchiligimizdagi bolalar huquqlari borasidagi o'zgartirishlar yangilanayotgan Konstitutsiyada ham qat'iy belgilab qo'yildi. Xususan, 44-moddada bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi, deya belgilandi [1]. Natijada uzoq yillar yurtimizning xalqaro imidjiga salbiy ta'sir qilib kelgan bolalar majburiy mehnatiga to'liq barham berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan mazkur norma bolalar mehnatining og'ir shakllaridan himoya qilish, ularni sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishishlari uchun muhim huquqiy kafolatdir.

Shuningdek, 50-moddada ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi belgilandi [1].

Unga ko'ra, sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalar faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishi yo'lga qo'yilishi Yangi O'zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir.

Mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasida samarali tizim yaratilgan bo'lib, bu borada bir nechta qonun hujjatlari qabul qilingan.

Asosiy qonunimizga ko'ra, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi [1]. Ta'lim sifatini oshirishda umumiy o'rta ta'limning o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar) umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Umumiy o'rta

ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi [3].

Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat maktab o'qituvchisining sa'y-harakati balki, ota va onalarning roli ham muhim o'rin tutadi. Bolaga ta'lim-tarbiya berish ota-onaning konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan XIV bob 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi" [1] deya ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 73-moddasida ham «Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart»ligi mustahkamlangan [4].

Farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga etkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi.

Konstitutsiyamizning 78-moddasiga ko'ra, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning burchi sifatida belgilandi [1].

Ota-onalar tomonidan voyaga etmagan bolalarga ta'lim-tarbiya berish kabi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarlik sifatida baholanib, o'z navbatida javobgarlikni vujudga keltiradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasida, bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra "ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga etmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga etmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi – bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" [5].

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish vazifalarini bajarmaslik deganda harakatsizlikning turli shakllarini, ya'ni harakatsizlik natijasida voyaga etmaganlarni tarbiyalash yoki ularga ta'lim berish to'g'risida etarli g'amxo'rlik qilinmayotganligini tushunish lozim. Yuqorida ta'kidlangan modda bo'yicha huquqbuzarlik subyekti faqat bolaning otasi yoki onasi emas, balki voyaga etmaganlarni tarbiyalash sohasidagi vazifalarni bajarishda ularga

tenglashtirilgan boshqa shaxslar ya'ni, bolani asrab olgan, ularni tarbiyalashda qonuniy ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylar va tarbiyachilar bo'lishi mumkin.

Shuni e'tiborga olish kerakki, bolalarni tarbiyalashda ota-onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslar, ota-onalik vazifalarini ruhiy kasallik, aqliy zaiflik yoki boshqa surunkali kasallik sababli va o'zlariga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra bajarmagan shaxslar mazkur modda bo'yicha ma'muriy jazoga tortilmaydi.

Voyaga etmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini hamda bu turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash tegishli davlat nazorati organlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan, bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligini voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar va ma'muriy sudlar ko'rib chiqadilar.

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligining oldini olishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim. Jumladan:

- aholiga mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil etkazadigan tizimni shakllantirish;

- tegishli davlat organlari tomonidan oilada, ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim-tarbiya berilishining tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish va nazoratga olishni ta'minlash;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyatining boshqa organlari tomonidan targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish;

- mahalla faollari boshqa mas'ullar bilan hamkorlikda oiladagi muhitni sog'lomlashtirishga, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini bartaraf etishga doir ishlarni amalga oshirish;

- nazoratni amalga oshiruvchi organlar va mas'ul shaxslar tomonidan ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar va voyaga etmaganlarni hamda aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan bolalarni aniqlash hamda tegishli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda sog'lom-turmush tarzini shakllantirishda bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalasiga alohida e'tibor qaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada tegishli ishlarni amalga oshirish, oilada bolalarga ta'lim-tarbiya berish va odob-ahloq qoidalarini o'rgatish bo'yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Bu esa, kelgusida ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligining oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni / 2008, 8-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni / 2020, 23-sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998, 5-6-son.

5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi / O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995, 9-son, 193-modda, 12-son, 269-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 22.04.2019 yildagi PQ-4296-son qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 2020 yil 29 maydagi PQ-4736-sonli qarori.

REZYUME. Maqolada bola huquqlari, uning qonuniy asoslari, kafolatlari va uni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risida so'z yuritilgan, shuningdek, bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligining oldini olish buyicha tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о правах ребёнка, их правовых основах, гарантиях и административной ответственности за их нарушения, а также о рекомендациях по предупреждению преступлений, связанных с неисполнением обязанностей по воспитанию и обучению детей.

SUMMARY. This article examines the rights of children, their legal framework, the guarantees ensuring these rights, and the administrative accountability for any breaches. It further offers recommendations on how to prevent legal violations connected to neglecting responsibilities in the upbringing and education of children.

СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1917-1920-е ГОДЫ

Ф.М.Мадреймов – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: шўро рахбарияти, ишчи-деҳқон, ислохот, миллийлаштириш, ижтимоий, тоталитар сиёсат, коммунизм, мактаб.

Ключевые слова: советская власть, рабочие-крестьяне, реформы, национализация, социальный, тоталитарная политика, коммунизм, школа.

Key words: The Soviet government, peasant workers, reforms, nationalization, social, totalitarian politics, communism, school.

Введение. В изучении социальной политики в Каракалпакстане 1917-1920-х годов можно выделить два основных периода - советский (начало 1930-х гг. - 1991 г.) [1] и постсоветский (с 1991 г. до настоящего времени) [2], принципиально отличающихся, прежде всего, методологическими концепциями исследования. Социальная политика советской власти в глазах исследователей 1917-1990-х годов была безупречной, теперь же подход к ней стал критичен, выявлен ряд существенных недостатков. Вместе с тем, несмотря на несомненные положительные тенденции последних лет в изучении социальной политики, следует признать, что тема изучена недостаточно. Основное внимание исследователей сосредоточено на коллективизации и положении дехканства, вынужденного существовать в этих условиях. Другие не менее значимые составляющие части социальной политики - медицинское обслуживание, жилищное обеспечение, продовольственное снабжение пока еще не нашли должного освещения в трудах современных исследователей. Это предопределяет необходимость дальнейшего изучения данной темы.

Основная часть. Основными направлениями по преобразованию социальной жизни общества в Каракалпакстане в 1917-1920-е годы являлись социальное обеспечение, здравоохранение, образование и трудовые отношения.

Реализация социальной функции в 1917-1920 годы была весьма затруднена сложившейся тяжелой социально-экономической обстановкой. Последствия военных действий порождали недовольства среди населения. Бедственное положение значительной части населения, низкий уровень жизни, отсутствие необходимой медицинской помощи, распространение беспризорности и высокий уровень смертности, особенно среди детей, требовали незамедлительного изменения социальной обстановки [3:106].

В 1918 г. вводится в действие Положение «О социальном обеспечении», которым закрепляется новое

направление реализации социальной функции в виде социального обеспечения. Особенностью данного акта являлось то, что его меры социальной поддержки были направлены лишь на представителей рабочего класса. Социальное обеспечение дехкан не являлось частью государственной системы, предоставлялось за счет организаций крестьянской взаимопомощи [4].

Еще одним важным направлением проявления социальной функции государства стало борьба с безработицей. Тяжелая экономическая ситуация, приостановка производства, порождали все большее количество безработных. Но в государстве труд являлся «обязанностью и делом чести каждого способного к труду гражданина». Таким образом, обязательность труда устанавливалась для всех в равной мере, а в случае нежелания трудиться применялись нормы Уголовного кодекса о туеядстве. Борьба с безработицей заключалась в полном обеспечении занятости населения [5:15].

В 1918 г. принимается Кодекс законов о труде, который регулирует трудовые отношения лиц работающих по найму. Кодекс регламентировал вопросы труда и отдыха, устанавливал 8-часовой рабочий день. Амударьинский Совет в мае 1918 г. объявил о переходе промышленных предприятий на восьмичасовой рабочий день, об установлении рабочего контроля над производством, национализации хлопкоочистительных, маслособойных, мыловаренных и кожевенных заводов, частных банков, типографий и т.п. [6:23].

Немаловажное значение в развитии социальной политики государства имело создание пенсионного обеспечения. Первоначально правом на пенсионное обеспечение обладали солдаты Рабоче-Крестьянской Красной Армии в случае наступления инвалидности и члены их семей при потере кормильца [3:23]. Во время гражданской войны особое внимание уделялось обеспечению красноармейцев и членов их семей. Декрет «О пенсионном обеспечении солдат Рабоче-крестьянской Красной Армии и их семейств»